

OQ TUT (MORUS ALBA L.) O‘SIMLIGI BARGINING FITOKIMYOVIY TARKIBI

Xudayberganov D.S.

Farmanova N.T.

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro sh., O‘zbekiston Respublikasi

e-mail:okaxon1uzb@gmail.com; tel.:+998937088030

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20427538>

Kalit so‘zlar: Morus alba L., polisaxaridlar, gpoglikemik brikmalar, flavonoidlar, fenol birikmalari, antioksidant, antibakterial, yallig‘lanishga qarshi.

Dolzarbli: O‘zbekiston hududiga xos iqlim omillari o‘simliklarda biologik faol birikmalarning hosil bo‘lishi va to‘planishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shunga qaramay, mahalliy sharoitda o‘sovchi oq tut navlari barglarining fitokimyoviy tarkibi yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa mazkur o‘simlik xomashyosini chuqur tahlil qilish, uning tarkibidagi foydali moddalarning aniqlanishi hamda dorivor xususiyatlarini baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli oq tut barglarining kimyoviy tarkibini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Maqsad: Oq tut (Morus alba L.) o‘simligi bargining fitokimyoviy tarkibiga oid adabiyotlarni tahlil qilish.

Usul va uslublar: Tahlil doirasiga 2005–2025-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy maqola va tadqiqot ishlari kiritildi. Adabiyotlarni izlash jarayoni Google Scholar, ResearchGate, Scopus, ScienceDirect platformalari, shuningdek, O‘zbekiston hamda MDH mamlakatlaridagi mahalliy ilmiy nashrlar bazalari orqali amalga oshirildi.

Natija: Oq tut barglari polisaxaridlarga, vitaminlarga, oqsillar va organik kislotalarga boy. Bu moddalar qandli diabetga qarshi, giperamnezniyaga qarshi, semirish va yallig‘lanishga qarshi ishlatiladi. Oq tut quritilmagan barg shirasi angina va tish og‘rig‘ini davolashda, mevasi og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari, bo‘g‘ma (difteriya), qizilcha (skarlatina), isitma va boshqakasalliklarni davolash uchun hamda burishtiruvchi, isitma ko‘tarilganda, chanqoqni bosuvchi va siydik haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Og‘iz bo‘shlig‘i va tomoq kasalliklarida meva damlamasi bilan og‘iz va tomoqni chayish buyuriladi. Isitma bilan kechadigan kasalliklarda shotut mevasidan chanqoq bosuvchi ichimlik tayyorlanib, bemorga ichirilsa foyda qiladi.

Tut turlari bargidan vitaminlar, organik kislotalar va boshqa moddalarga boy xolosas ko‘rinishidagi dorivor preparat olingan va ilmiy tibbiyotda xolosas o‘rnida jigar va o‘t qopi kasalliklarini hamda (sariq kasalligi, xoletsistit va boshqalarni) davolashda ishlatishga tavsiya qilingan.

Xulosa: Oq tut (Morus alba L.) biologik faol moddalariga boy bo‘lgan dorivor o‘simlik hisoblanadi va u turli xil farmakologik xususiyatlarga ega. Shu sababli, ushbu o‘simlik negizida tabiiy hamda yuqori samaradorlikka ega farmatsevtik preparatlar ishlab chiqish dolzarb vazifa sanaladi.